

LOYIHAGA ASOSLANGAN TA'LIM METODI ORQALI INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

*Yo'ldosheva Nazokat G'ulomjonovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch
Davlat universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu tezisda loyihaga asoslangan ta'lim (Project-Based Learning – PBL) metodi orqali ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning samaradorligi tahlil qilinadi. PBL metodi o'quvchilarni markazga qo'ygan, ularni real hayotiy muammolarni hal qilishga jalb etgan va bu orqali o'quv jarayonini mazmunli va faol qiladi. Tadqiqot davomida PBL metodining til o'rganishda ayniqsa “speaking” (gapirish) ko'nikmasini rivojlantirishdagi o'rni nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, metodning didaktik imkoniyatlari, o'qituvchining roli va o'quvchi motivatsiyasiga ta'siri tahlil qilinadi. Amaliy tajriba natijalari esa bu metod orqali talabalarning mustaqil fikrlash, jamoaviy ishlash va erkin muloqot qilish qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlanishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Loyihaga asoslangan ta'lim, ingliz tili, og'zaki nutq, gapirish ko'nikmasi, interaktiv metodlar, kommunikativ kompetensiya, PBL, til o'rganish strategiyalari.

Kirish

Globalizatsiya davrida ingliz tili nafaqat fan va texnologiya, balki kundalik hayot va ishbilarmonlik sohalarida ham muhim vositaga aylangan. Ammo uni o'rganishda, ayniqsa gapirish (speaking) ko'nikmasini shakllantirishda ko'plab o'quvchilar passivlik va til muhitining yetishmasligi muammosiga duch keladilar. Ushbu holatni bartaraf etishda loyihaga asoslangan ta'lim (Project-based Learning – PjBL) samarali yondashuv sifatida tan olinmoqda.

Asosiy qism.

Hozirgi zamon ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar tobora muhim o'rin egallab bormoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni, jumladan, ingliz tilini o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarining, jumladan, yangi texnologiyalarni qo'llanilishi samaradorlikni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Talabalarni mustaqil fikrlashga, mustaqil izlanishga va o'zini o'zi rivojlantirishga yo'naltirish zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biridir.

PBL metodi Vygotskiy, Piaget kabi konstruktivistik pedagogik g'oyalarga tayangan holda, o'quvchilarni faqat bilim egallashga emas, balki uni amalda qo'llashga undaydi. Bu metodning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat.[1]

- Haqiqiy kontekstga asoslangan faoliyat

(3rd international scientific and practical conference)

- Hamkorlik va kommunikatsiya
- O‘z fikrini ifoda qilish va tinglash

Bu yondashuv o‘quvchilarni faol muloqotga chorlab, ularni muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot o‘rta maktab 9-sinf o‘quvchilari orasida olib borildi. Sinov guruhi PjBL metodidan foydalangan holda 4 hafta davomida ingliz tili darslarida qatnashdi. Har hafta turli mavzudagi loyihalar bajarildi:

- 1-loyiha: “Sayohatni rejalashtirish” – xarita asosida marshrutni tavsiflab berish.
 - 2-loyiha: “Yangi mahsulot ixtiro qilish” – mahsulotni tanishtirish va savollarga javob berish.
 - 3-loyiha: “Restoranda xizmat qilish” – mijoz va ofitsiant rollarini bajarish.
 - 4-loyiha: “Sevimli qahramonni intervyu qilish” – tayyor savollar bilan suhbat qurish.
- Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar o‘rtasida gapirishga bo‘lgan ishtiyoq va ishonch ortdi. Leksik zahira va og‘zaki ifoda qilish ko‘nikmalari sezilarli darajada oshdi. O‘qituvchilar tomonidan baholashda ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi.

Xulosa

Loyihaga asoslangan ta’lim metodi ingliz tili ta’limida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun innovatsion, samarali va tabiiy yondashuvdir. Bu metod orqali o‘quvchilar o‘zaro muloqotga kirishib, tilni faol qo‘llashga odatlanadilar. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash, izlanish va o‘z fikrini aniq ifoda etish layoqati ortadi.

Tavsiyalar

- - PjBL metodini ingliz tili darslariga bosqichma-bosqich integratsiya qilish.
- Har bir loyiha yakunida taqdimot, munozara va baholashni joriy qilish.
- Gapirish ko‘nikmasini baholashda grammatik to‘g‘rilik bilan bir qatorda, mazmun, ravonlik va interaktivlikni inobatga olish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.
 2. Beckett, G. H. & Slater, T. (2005). The Project Framework: A Tool for Language, Content, and Skills Integration.
 3. Bell, S. (2010). Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future.
 4. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching.
 5. Richards, J.C. & Rodgers, T.S. (2001). Approaches and Methods in Language Teaching.
 6. Thomas, J. W. (2000). A Review of Research on Project-Based Learning.
- Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.